

ZULFIYANING “ONAM BOG’I” SHE’RI  
LINGVOPOETIK TAHLILII XUSUSIDA

*Sodiqova Dilafruz Azimjon qizi*

*TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va  
xalqaro jurnalistika oliy maktabi o’qituvchisi  
E-mail: dilafruzusmonova791@gmail.com*

**Annotatsiya.** Zulfiya o‘zbek adabiyotining buyuk shoiralaridan biri, uning ijodi o‘zbek she’riyatining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Zulfiyaning she’rlari jamiyatdagi eng nozik va chuqr insoniy hissiyotlarni ifodalashga yo‘naltirilgan. Shoira o‘zining har bir asarida insoniy fazilatlarni, mehr-muhabbatni, vatanparvarlikni, umuman hayotning ezgu maqsadlarini aks ettirgan. U she’riyatning mangu joziba qudratini ana shu uch narsada – soflik, qudrat va jasoratda ko‘radi”. Zulfiyaning “Onam bog’i” she’ri nafaqat o‘zbek she’riyatining yuksak namunalaridan biri, balki ona obrazi orqali insonning ruhiy va axloqiy mukammalligi haqida chuqr fikrlar ifodalovchi asar hisoblanadi. Zulfiya individual uslubini aniqlovchi omillardan biri uning mualliflik neologizmlaridir. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan, asosan, affiksatsiya usulidan foydalanib, shoira yangi qurilmalar yaratadi. Uning o‘ziga xosligi esa bu so’zlarning o‘zbek tilida uchramagan shakllarda namoyon bo’lishida va natijada yangi ma’noli birlik hosil bo’lishida ko’rinadi. Shu kungacha Zulfiya ijodi bo’yicha ko’p asarlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bulardan eng yirigi S.Karimoving “Zulfiya asarlari lingvostistikasi” nomli monografiyasi desak mubolag’a bo’lmaydi. Biroq Zulfiya serqirra ijodkor, she’rlarining ohangi o‘ziga xos, tafakkur va tasavvur dunyosi keng shoira. Shuning uchun ham uning ijodini lingvopoetik jihatdan chuqr tahlil qilish, noyob qirralarini kashf etish oldimizda turgan dolzarb vazifadir.

Ushbu maqolada shoiraning “Onam bog’i” nomli she’ri lingvopoetik tahlilga tortilgan, stilistik xususiyatlari bayon etilgan. Ijodkor she’rlarida qo’llanilgan konnotativ ma’noni ifodalab kelgan til vositalarining xususiyatlari, badiiy san’atlar, ko’chimlar va antonimiya, sinonimiya kabi turli til hodisalari tahlil qilinib, ijodidagi ayrim badiiy obrazlar atroflicha yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvopoetik tahlil, o’xshatish, neologizm, antonimiya, sinonimiya, gradatsiya

**К ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ ПОЭМЫ  
ЗУЛФИИ «САД МОЕЙ МАТЕРИ»**

**Аннотация.** Зульфия – одна из великих поэтесс узбекской литературы, ее творчество внесло большой вклад в развитие узбекской поэзии. Стихи Зульфии направлены на выражение самых чувствительных и глубоких человеческих

эмоций в обществе. В каждом своем произведении поэтесса отразила человеческие качества, любовь, патриотизм, благородные цели жизни в целом. В этих трёх вещах — чистоте, силе и мужестве она видит вечное очарование поэзии». Стихотворение Зульфии «Сад моей матери»— это не только один из лучших образцов узбекской поэзии, но и произведение, выражающее глубокие мысли о духовно-нравственном совершенстве человека через образ матери. Одним из определяющих факторов индивидуального стиля Зульфии являются её авторские неологизмы. Используя внутренние возможности узбекского языка, главным образом аффиксационный метод, поэтесса создает новые приемы. Её уникальность проявляется в появлении этих слов в формах, не встречающихся в узбекском языке, и в результате образуется новая смысловая единица. До сих пор по творчеству Зульфии выполнено множество работ и научных исследований. Не будет преувеличением сказать, что самой крупной из них является монография С. Каримова «Лингвостилистика произведений Зульфии». Однако Зульфия — плодовитая художница, тон ее стихов уникален, она поэт с широким миром мысли и воображения. Поэтому перед нами стоит актуальная задача глубоко проанализировать её творчество с точки зрения лингвопоэтики, раскрыть её уникальные стороны.

В данной статье стихотворение поэта «Сад моей матери» подвергается лингвопоэтическому анализу, описываются её стилистические особенности. Анализируются характеристики языковых средств, выражающих коннотативное значение, используемых в стихотворениях поэта, художественных произведениях, миграциях и различных языковых явлениях, таких как антонимия и синонимия, а также детализируются некоторые художественные образы в её творчестве.

**Ключевые слова:** лингвопоэтический анализ, аналогия, неологизм, антонимия, синонимия, градация.

## **ON THE LINGUOPOETIC ANALYSIS OF ZULFIYA’S POEM “MY MOTHER’S GARDEN”**

**Abstract.** Zulfiya is one of the great poetesses of Uzbek literature, her work made a great contribution to the development of Uzbek poetry. Zulfiya's poems are aimed at expressing the most sensitive and deep human emotions in society. In each of her works, the poetess reflected human qualities, love, patriotism, and noble goals of life in general. In these three things - purity, strength and courage, she sees the eternal charm of poetry." Zulfiya's poem "My Mother's Garden" is not only one of the best examples of Uzbek poetry, but also a work that expresses deep thoughts about the spiritual and moral perfection of man through the image of a mother. One of the determining factors in Zulfiya's individual style is her author's neologisms. Using the

internal capabilities of the Uzbek language, mainly the affixation method, the poetess creates new techniques. Its uniqueness is manifested in the appearance of these words in forms not found in the Uzbek language, and as a result, a new semantic unit is formed. Until now, many works and scientific studies have been carried out on Zulfiya's work. It would not be an exaggeration to say that the largest of them is S. Karimov's monograph “Linguistic Stylistics of Zulfiya's Works.” However, Zulfiya is a prolific artist, the tone of her poems is unique, she is a poet with a wide world of thought and imagination. Therefore, we are faced with the urgent task of deeply analyzing her work from the point of view of linguopoetics and revealing its unique aspects.

In this article, the poet's poem “My Mother's Garden” is subjected to linguapoetic analysis and its stylistic features are described. The characteristics of linguistic means expressing connotative meaning used in the poet's poems, works of art, migrations and various linguistic phenomena are analyzed, such as antonymy and synonymy, and also details some artistic images in his work.

**Key words:** linguopoetic analysis, analogy, neologism, antonymy, synonymy, gradation.

Taniqli rus shoirasi Marina Svetayeva: “She'riyat – eng kam so‘z bilan ifodalash san'atidir” deb yozgan edi. Boshqird shoiri Musa G‘ali esa o‘z she’rlarining birida she’riyatni soflik, qudrat va jasorat deb atagan. Zulfiya qalamkash do‘stlarining she’riyat haqidagi bu so‘zlarini sharhlab, “haqiqatan ham, jasorat yo‘q joyda she’riyatni payqamaydilar ham, qudrat yo‘q joyda esa she’riyat ham yo‘qdir. She’riyatning ana shu fazilatlari o‘zaro qattiq aloqador, o‘zaro bog‘langan, bir-birini taqozo etadi”, deydi. U she’riyatning mangu joziba qudratini ana shu uch narsada – soflik, qudrat va jasoratda ko‘radi”. Zulfiyaning ilk she’ri 1931-yilda „Ishchi“ gazetasida bosingan. Dastlab 1932 yil „Hayot varaqalari“ she’rlar to‘plami nashr etilgan. Shundan keyin uning „Temirov“ (1934), „She’rlar“, „Qizlar qo‘shig‘i“ (1939) she’riy kitoblari e’lon qilingan. Zulfiya she’riy ijodining porlashi „Uni Farhod der edilar“ (1943), „Hijron kunlarida“ (1944) va „Xulkar“ (1947) to‘plamlari bilan bog‘liq. Ayniqsa, Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to‘la she’rlar Zulfiya ijodida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganidan darak beradi. U shaxsiy fojiasi tasviri orqali Ikkinchiji jahon urushidan katta talafot va yo‘qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi. Zulfiya o‘zining eng yirik asarlarini xalqning qalbidan joy olgan, vaqt o‘tgan sari ahamiyatini yo‘qotmaydigan mavzularda yaratgan.

Zulfiyaning “Onam bog‘i” she’ri nafaqat o‘zbek she’riyatining yuksak namunalaridan biri, balki ona obraqi orqali insonning ruhiy va axloqiy mukammalligi haqida chuqur fikrlar ifodalovchi asar hisoblanadi. Shoira bu she’rida ona obrazini,

uning mehrini, sabrini va hayotdagi o‘rni haqida tasvirlaydi. Zulfiya “Onam bog’i” she’rida, nafaqat ona sifatida, balki jamiyatning kuchli va barqaror asosini tashkil etuvchi shaxs sifatida ona obrazini yuksaltiradi. Uning she’ri har bir o‘quvchini onaning roli, uning qadr-qimmati va uning dunyodagi ahamiyati haqida qayta o‘ylashga undaydi. She’rda ona va ona bo‘lishning beqiyos go‘zalligi haqida yozilgan fikrlar, har bir insonning ongida qimmatli iz qoldiradi. Zulfiya o‘z she’rida ona, shaxsiyat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni o‘ziga xos tarzda birlashtirgan. Quyida shoiraning ana shu she’rini lingvopoetik tahlil qilib ko’ramiz.

Kechagina borliq edi moviy qor,  
Sevgidayin kun taftidan eridi.  
Esda:Biz yosh, qor bahordan serviqor,  
Tanimizda ming bir oftob bor edi.  
Hamma go’zal:  
Yoshi o’tgan onam ham  
Xushbo’y edi xiyol so’liq gul misol,  
U bilganni pari bilmas bir olam,  
Unga kelib yechilardi barcha fol.  
Nafasidan nafas olib o’sdik biz:  
Farzandlaru, gulu kitob hamrohi.  
Guldan jozib edi bizning onamiz,  
Bir jahon baxt bag’ishlardi nigohi...  
Onam bog’i orzusimon turfa rang,  
Loqayd, bachki bezaklarga edi yot.  
Bor mavjudot raqibi-la qilib jang  
O’stirdi bog’, o’g’il va qiz — surriyod.  
Shu eram bog’ zamonaning zayli-la  
El o’tguvchi ravon yo’lga aylandi.  
Onam!  
Sizning umr hayot mayli-la  
Mening jismu jahonimga joylandi...  
Necha ajdod kechgan bog’dan yo’l qoldi,  
U yo’llarda Sizu mendan yo’qdir iz!  
Sizni Menu,  
Meni Onalik oldi,  
Ayol zoti ketmas hayotdan izsiz...

Zulfiyaning bu asari ona va farzandning ko‘ngil olamidagi o‘zaro hurmat, mehr va muhabbatni ifodalaydi. She’rda hayotning og‘ir sinovlari va ularni yengib o‘tishdagi onaning roli tasvirlangan. Ona farzandining oldiga keladigan qiyinchiliklarni

yengishga yordam beradi va unga qarshi kurashishda doim yonida turadi. Ona farzandini faqatgina dunyo bilimlari bilan emas, balki insoniylik, mehr va yaxshi niyatlar bilan ham tarbiyalaydi.

Birinchi satrdagi “moviy qor” badiiy tasviri yoshlikning toza va beg’uborligiga ishoradir. Kun taftida qorning erishi shoira sevgisining ayriliqlarga yuz tutganiga qiyoslangan. “Tanimizda ming bir oftob bor edi” satri mubolag’aga yaqqol misol. Bu yerdagi ming bir soni miqdorni emas, yoshlik shiddati, otashqalblikni ifodalamoqda. Keyingi satrda esa gradatsiyaga guvoh bo’lamiz. “Hamma go’zal” satridan to “Bir jahon baxt bag’ishlardi nigohi”satrigacha. Gradatsiya badiiy nutqning ta’sirchanligini ta’minlovchi sintaktik usullardan biridir. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg’u va kechinmalarni qiyoslashda, his hayajonlar junbushini to’liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. Bu yerda mohiyatiga ko’ra ko’tariluvchi gradatsiya, ifoda usuliga ko’ra emotsiyonal, ifoda materialiga ko’ra sintaktik gradatsiya qo’llanilgan. “Xushbo’y edi hiyol so’liq gul misol, U bilganni pari bilmas, guldan jozib” kabi o’xshatishlari, “unga kelib yechilardi barcha fol” ta’riflari farzandi joniga oro bag’ishlovchi, mo’jizakor Ona suratini birin-ketin o’quvchi ko’z oldida chiza boshlaydi. “Bir jahon baxt bag’ishlardi nigohi” satrida ham mubolag’a san’ati qo’llanilgan: bir nigohi bilan bir jahon baxt berish tashbehi qo’llanilmoqda.

Onam bog’i “orzusimon turfa rang” ta’rifi ham xususiy muallif o’xshatishlaridan biridir. Chunki bunda bog’ orzu kabi turfa rangda tasvirlanmoqda. Odatda bog’ga nisbatan qo’llaniladigan o’xshatish, o’zgacha tus olib, bunda orzu markaziy obrazga aylangan. “Loqayd, bachki bezaklarga edi yot” qatorida salbiy sifatlar ketma- ket kelib, sinonimik qatorni hosil qilgan.

“O’stirdi bog’, o’g’il va qiz — zurriyod” satrida “bog’ o’stirmoq”, keyingi qatorlardagi “eram bog’, ravon yo’l” metaforalari ham og’il va qiz farzandlarni to’g’ri tarbiyalab voyaga yetkazish ma’nolarini ifoda etmoqda.

Zulfiya individual uslubini aniqlovchi omillardan biri uning mualliflik neologizmlaridir. O’zbek tilining ichki imkoniyatlaridan, asosan, affiksatsiya usulidan foydalanib, shoira yangi qurilmalar yaratadi. Uning o’ziga xosligi esa bu so’zlarning o’zbek tilida uchramagan shakllarda namoyon bo’lishida va natijada yangi ma’noli birlik hosil bo’lishida ko’rinadi.

“Onam!” undalmasida emotsiyonal ohang, qat’iy murojaat xususiyati mujassam.

Sizning umr hayot mayli-la mening jismu jahonimga joylandi... ushbu gapda Ona umri qizining jism-u joniga, hayot andozasiga aylangani aytildi. “Mayli-la” so’zidan mayli bilan ma’nosи anglashiladi, -la bu yerda bilan bog’lovchisi she’riy tarzda qisqartirilgan.

“Necha ajdod kechgan bog’dan yo’l qoldi

U yo'llarda Sizu mendan yo'qdir iz" (bunda metonimiya qo'llanilgan), satri orqali hayot o'tkinchi ekani, umrning ko'p qismini yashab o'tgani haqida hikoya qilib o'tadi.

"Sizni Menu, Meni Onalik oldi" deganida ellipsis hodisasi sodir bo'lган. Bu yerda umr, hayot so'zлari tushirib qoldirilib, gap torayishi ma'no kuchayishiga sabab bo'lган. She'r so'nggida "Ayol zoti ketmas hayotdan izsiz..." jumlesi emotsional gap bo'lib, bunda "izsiz" so'zi orqali metonimiya hodisasini ko'rish mumkin. Bu jumla orqali har bir ayol hatto dunyoni tark etsa ham, farzandlari, avlodlari hayotida ruhan yashayveradi degan purma'no fikr yashirin. Chunki ayol farzandi uchun butun borlig'ini bag'ishlaydi, ularni tarbiyalab, voyaga yetkazib, o'z umrini ular uchun fido qiladi.

Zulfiyaning «Onam bog'i» she'ri, huddi boshqa uning asarlari kabi, insoniy tuyg'ular, ruhiy izlanishlar va o'zgarmas qadriyatlarni o'zida aks ettiradi. She'rda ona va farzand o'rtasidagi aloqaning ta'siri va yuksakligi hamda ularning o'zaro muhabbatni, bir-biriga bo'lган ishonchi, hayotdagi eng yuksak maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lган kuch manbai sifatida ko'rsatiladi. Zulfiyaning o'ziga xos she'riy uslubi va ta'sirchan so'zлari bu mavzuni juda samimiy va chuqur tarzda ifodalaydi. Ona — faqatgina farzandining hayotidagi muhim shaxs emas, balki uning ruhiy yo'ldoshi, tarbiyachisi va kuch manbai hisoblanadi. Zulfiyaning bu she'ri hayotda qaror topgan eng asosiy qadriyatlarni — mehrni, sevgini, fidoyilikni, va o'zaro yordamni ulug'laydi. U ona va farzand o'rtasidagi aloqaning yagona va o'ziga xosligini, bu munosabatlarning haqiqatda qanday ulug'ver va mustahkam ekanligini o'quvchiga his-tuyg'ulari orqali yetkazadi. Zulfiyaning «Onam bog'i» she'ri — bu faqatgina onalik haqidagi she'r emas, balki insonning ichki kuchi, hayotiy qadriyatlari va o'zining kelajagi uchun mas'uliyatini anglashga undovchi asar. Bu she'r bizni insoniylikka, mehrga va sadoqatga, haqiqatda muhabbatning cheksiz kuchiga ishonishga chaqiradi.

### **Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Zulfiya Ona. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1965.
2. Zulfiya. Tanlangan asarlar. — Toshkent: O'zbekiston, 1972.
3. Zulfiya. She'riy to'plam. — Toshkent: O'zbekgazet, 1985.
4. Zulfiya. O'zbek adabiyoti: Zulfiyaning asarlari. — Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
5. Zulfiya. Tanlangan asarlar: She'rlar va poema. — Toshkent: O'zbekiston, 2005.